

«TASDIQLAYMAN»

Bosh direktorning marketing
va sotuvlar bo'yich o'rinbosari
«UMS» MChJ



_____ L.Yu. Filatova

» _____ 2025

TEXNIK TOPSHIRIQ

Andijon shahridagi ko'p qavatli turar-joy binosi tom qismiga "Hajmli yorug'lik logotip"
turidagi reklama tom qurilmasini xarid qilish va o'rnatish uchun

UMS" MChJ ehtiyojlari uchun

Toshkent – 2025

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Tovarlar tavsifi

Andijon shahri, Nodirabegim MFY, 2- kichik daha, 64-uy manzilidagi ko'p qavatli turar-joy binosi tom qismiga hajmli yorug'lik logotip turida «MOBIUZ» reklama tom qurilmasini yetkazib berish va o'rnatish

1.2 Tovarlarini xarid qilish maqsadi

Brendni tanitish

1.3 Loyiha asoslari

CAPEX «Hajmli harflar»

1.4 Yangiligi haqida ma'lumot

Yetkazib beriladigan uskunalar yangi, ishlatilmagan, qayta tiklanmagan, modifikatsiya qilinmagan, shikastlanmagan, sifat sertifikatiga ega bo'lishi va 2025-yildan avval ishlab chiqarilmagan bo'lishi kerak. Ushbu texnik topshiriqning 3-bandida keltirilgan barcha talablarga muvofiq bo'lishi lozim.

2. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Mos sohada tajribaga ega bo'lishi kerak. O'xshash ishlangan loyihalar mavjudligi.

Ishchi loyiha ishlab chiqish va joyni texnik ko'rikdan o'tqizish, bino tom qoplamasini demontaj qilish, uskunalarini yetkazish va o'rnatish, o'rnatishdan so'ng tom qoplamini tiklash, elektr ta'minotiga ulash Bajaruvchi hisobidan amalga oshiriladi.

3. Tovarlarining texnik xarakteristikalarini

«Hajmli yorug'lik logotip» turidagi reklama tom qurilmasi qurilish me'yorlari va qoidalari, elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalari, texnik reglamentlar, sanitariya me'yorlari va qoidalari (jumladan yoritilganlik, elektromagnit nurlanish va boshqalar bo'yicha talablar), yong'in xavfsizligi talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda loyihalanishi, ishlab chiqarilishi va o'rnatilishi kerak

Reklama qurilma asosini binoning tomiga mahkamlangan tayanch metall rama tashkil etadi. Metall ramaga hajmli yorug'lik «MOBIUZ» logotipi o'rnatiladi. Qurilmada logotipning elementlariga texnik xizmat ko'rsatish uchun maxsus metall yo'lakchalar va zinapoyalar nazarda tutilishi kerak.

Metall qurilma umumiy o'lchami – **15m x 4m**. Hajmli yorug'lik logotip umumiy o'lchami — **15m x 3m, 1- Ilovaga** muvofiq. Logotip hajmli harflar ko'rinishida tayyorlanadi. Harflarning old tomoni 2 mm qalinlikdagi perforatsiyalangan metall listdan yasaladi, perforatsiya qadami — 40 mm va RGB germetik piksel svetodiodlarini o'rnatish uchun mo'ljallangan. Harflarning yon va orqa tomonlari ham 2 mm metall listdan tayyorlanadi. Logotip changga chidamli antikorrozion bo'yoq bilan bo'yaladi (rangi Buyurtmachi bilan kelishiladi).

Yoritish, diametri 12 mm bo'lgan RGB piksel svetodiodlari orqali amalga oshiriladi, ular harflarning old tomonidagi teshiklarga o'rnatiladi. Yoqish/o'chirish foto-rele va vaqt taymeri orqali boshqariladi.

Barcha kabellar va simlar himoya g'ilofiga yotqiziladi va IP65 dan kam bo'lmagan himoya darajasiga ega bo'lgan elektr qutiga ulab chiqiladi. Elektr quti, reklama logotipning yoritishning

to'g'ri va xavfsiz ishlashi uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar bilan (magnit starter, avtomatlar va boshqalar) bilan jihozlanadi.

Hajmli harflar yoritishiga ishlatiladigan barcha quvvat bloklariga suv o'tkazmasligini ta'minlanishi zarur.

Hajmli yorug'lik logotipni elektr tarmog'iga ulash Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan Texnik shartga muvofiq tegishli transformator podstansiyasiga ulash (kabelni ulanish joyigacha tortish (300m gacha), tegishli sertifikatlangan elektr hisoblagichini o'rnatish, va hokazolar) Yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Elektr tarmog'iga ulashda chegaralarni ajratish dalolatnomasi Yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtiriladi.

4. Yetkazib berish bo'yicha talablar

Qurilmalar va materiallarning yetkazib berilishi O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan "Avtomobil transportida yuk tashish qoidolari" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagi 213-son qarori, 1-ilova)ga muvofiq ravishda, maxsus mo'ljallangan yuk transportida amalga oshirilishi lozim.

Qurilmalarni va materiallarni yetkazib berish, shuningdek yuklash-tushirish ishlari Andijon shahri doirasida Yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Qurilmalarni va materiallarni yetkazib berish, hamda yuklash-tushirish ishlarining qiymati mahsulotning ishlab chiqarish narxiga kiritilgan bo'lishi kerak.

5. To'plam bo'yicha talablar

To'plam, hajmli yorug'lik logotipni o'rnatish va ishga tushirish uchun zarur bo'lgan barcha uskunalar va materiallarning to'liq o'z ichiga olishi kerak, va ular barcha amaldagi reglamentlarga muvofiq bo'lishi lozim. Barcha uskunalar zavod qadoqlarida, zavod plomblari buzilmagan holda, tashqi nuqsonlar, yoki korpusning shikastlanishlari mavjud bo'lmagan tarzda yetkazib berilishi shart.

6. Tovarga xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya bo'yicha talablar

Metall rama qurilma va hajmli yorug'lik logotip reklama qurilmasini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun to'sqinliksiz kirish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

7. Texnik jihatdan normativ hujjatlarga muvofiqlik bo'yicha talablar

Reklama qurilmani ekspluatatsiya qilish jarayonida xodimlarni elektr tokidan himoya qilish ta'minlanishi lozim.

Reklama qurilma elektr uskunolari uchun belgilangan xavfsizlik talablariga muvofiq bo'lishi shart. Uskunani montaj qilishda qo'llaniladigan konstruksiyalar va materiallar yong'inga chidamli bo'lishi, ya'ni oson alanganuvchi bo'lmasligi kerak.

Axborotni aks ettirish tizimining texnik vositalari yerga ulash konturiga ulanish uchun zarur bo'lgan konstruktiv elementlarga ega bo'lishi lozim.

8. Miqdor, davriylik, muddat va yetkazib berish joyi bo'yicha talablar

«Hajmli yorug'lik logotip» turidagi reklama tom qurilmasini o'rnatish Andijon shahri, Nodirabegim MFY, 2- kichik daha, 64-uy manzilida amalga oshiriladi. Oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab yetkazib berish va o'rnatish muddati 20 kalendar kundan oshmasligi kerak.

9. Montaj ishlari bo'yicha talablar

Barcha o'rnatish ishlari Yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlar, Yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan ishchi loyiha asosida bajariladi.

Qurilma va uskunalarni o'rnatish Texnik Xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Elektr tarmoqlariga ulash faqat tegishli ruxsat darajasiga ega bo'lgan xodimlar tomonidan bajarilishi lozim.

Balandlikdagi ishlar maxsus tayyorlangan xodimlar tomonidan, balandlikda xavfsiz ishlash uchun mo'ljallangan jihozlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Montaj vaqtida ish maydoni maxsus vositalar bilan o'ralgan bo'lishi shart.

Joriy ishlar ish kunining tugashi munosabati bilan yakunlangandan so'ng, shuningdek barcha ishlar to'liq bajarilgach, Yetkazib beruvchi o'zidan keyingi hududni tozalashi, chiqindilarni olib chiqishi va ishlar natijasida yuzaga kelgan boshqa oqibatlarni bartaraf etishi shart. Buyurtmachi mazkur bandda nazarda tutilgan majburiyatlar to'liq bajarilmaguncha ish natijalarini qabul qilishdan bosh tortish huquqiga ega.

Ishlar davomida xodimlarning xavfsizligi uchun javobgarlik Yetkazib beruvchiga yuklanadi.

10. Buyurmachi xodimlarini o'qitish bo'yicha talablar

Yetkazib beruvchi buyurmachi xodimlari (1–2 kishi) uchun uskunani avtomatik yoqish/o'chirish jadvalini sozlash bo'yicha yo'riqnoma o'tkazadi.

11. Hujjatlar bo'yicha talablar

Yetkazib beriladigan tovar quyidagi to'liq texnik hujjatlar to'plamiga ega bo'lishi kerak: Loyiha hujjatlari (O'zbekiston Respublikasi qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiqligi tasdiqlangan), texnik pasport, kabel sinovi protokoli, kabel o'tkazish sxemasi, chegaralarni ajratish dalolatnomasi, hisob varaq-faktura, ikki tomon tomonidan imzolangan tovar qabul qilish dalolatnomasi.

12. Kafolat bo'yicha talablar

Yetkazib beriladigan barcha uskunalariga hamda tom qoplamasining reklama qurilmasi o'rnatilgan qismidan suv o'tqazmasligiga kafolat muddati foydalanishga topshirilgan kundan boshlab kamida 12 oy bo'lishi kerak.

Nosozlik yuzaga kelganida, Buyurtmachi Yetkazib beruvchini og'zaki yoki yozma ravishda xabardor qiladi. Buyurtmachidan nosozlik, tomning qismidan suv o'tishi yoki hajmli harflar yoritgichi biror qismi noto'g'ri ishlayotgani haqida xabar olingandan so'ng, Yetkazib beruvchi 48 soat ichida texnik ko'rikdan o'tkazishni amalga oshirishi shart. Yetkazib beruvchi uskunalarini, tom qoplamasini ko'rikdan o'tkazilgan kuni nosozlikni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi va bajariladigan ishlar ro'yxatini taqdim etishi hamda ularni bajarishi lozim.

13. Mahsulotning yaroqlilik muddati, saqlash muddati va sifat kafolati bo'yicha talablar.

Yetkazib beruvchi mahsulot sifati ushbu Texnik topshiriqda ko'rsatilgan texnik talablarga mos ekanligini kafolatlaydi. Texnik topshiriqqa mos bo'lmagan, talabga javob bermaydigan sifatsiz mahsulotni qaytarish va almashtirish yoki aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish xarajatlari Yetkazib beruvchi hisobidan amalga oshiriladi.

14. Ilovalar ro'yxati

№	Ilova nomi	Varaqlar soni
1	Hajmli yorug'lik logotip o'lchamlari	1
2	Hajmli yorug'lik logotip dastlabki ko'rinishi	1

Tuzuvchi:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi eksperti



Yu.N. Yuldashev

Kelishilgan:

Reklama ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i




M.B. Mirkarimov

Marketing bo'yicha director



Ye.V. Lim

Hajmli yorug'lik logotip o'lchamlari



Hajmli yorug'lik logotip dastlabki ko'rinishi

